

**XX – XXI ARSLARDA AFG‘ONISTON DAVLAT BOSHQARUVIDA
O‘ZBEKLARNING O‘RNI****Normamatov Ergash Orif o‘g‘li**Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti 1-bosqich magistrantiORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-2918-6466>E-mail: ergashnormamatov002@gmail.comIlmiy rahbar: t.f.f.d (PhD) **A.H.Fayzullayev**

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX–XXI asrlarda Afg‘oniston davlat boshqaruvi tizimida o‘zbek etnik guruhining tutgan o‘rni va siyosiy jarayonlardagi ishtiroki kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mamlakatdagi etnosiyosiy muhit, etnik guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda Afg‘oniston jamiyatining ichki bo‘linishi bilan bog‘liq muammolar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, o‘zbeklarning Afg‘onistondagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi roli ochib beriladi. Maqolada afg‘on-o‘zbek siyosiy arbobi, marshal Abdul Rashid Do‘stumning mamlakat siyosiy maydonida shakllanish jarayoni alohida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, 2001-yildan keyingi siyosiy boshqaruv tizimida o‘zbeklarning tutgan o‘rni, xususan 2004–2021 yillarda parlament va ijro hokimiyati tuzilmalaridagi vakilligi ilmiy mulohazalar asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Etnosiyosiy muammolar, siyosiy boshqaruv, etnik guruhlar, siyosil elita.

**THE ROLE OF UZBEKS IN AFGHANISTAN’S STATE GOVERNANCE IN
THE 20TH–21ST CENTURIES.**

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the role and participation of the Uzbek ethnic group in Afghanistan’s state governance during the twentieth and twenty-first centuries. The study examines the country’s ethno-political environment, interethnic relations, and the challenges arising from Afghanistan’s internal fragmentation into multiple ethnic and political groups. Particular attention is paid to the political, social, and cultural roles of Uzbeks in Afghan society. The article also analyzes the emergence of the Afghan-Uzbek political leader Marshal Abdul Rashid Dostum on the national political stage. In addition, the role of Uzbeks in the post-2001 political governance system is assessed, with a focus on their representation in parliamentary and governmental institutions between 2004 and 2021.

Key words: Ethnopolitical problems, political management, ethnic groups, political elite.

KIRISH.

XX – XXI asrlarda Afgʻoniston davlat boshqaruvida oʻzbeklarning oʻrni. Afgʻoniston koʻp millatli va murakkab etnosiyosiy tuzilishga ega davlat boʻlib, uning siyosiy boshqaruv tizimi XX–XXI asrlar davomida etnik omil bilan chambarchas bogʻliq holda shakllangan. Mamlakat tarixida pushtunlar siyosiy hukmron guruh sifatida yetakchi mavqega ega boʻlib kelgan boʻlsa-da, shimoliy hududlarda yashovchi oʻzbeklar, tojiklar va turkmanlar ham muayyan davrlarda davlat boshqaruvi va siyosiy jarayonlarda sezilarli rol oʻynagan. Ayniqsa, Afgʻoniston oʻzbeklari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab markaziy hokimiyat va mintaqaviy siyosatdagi muhim aktorga aylangan.

Afgʻonistonning milliy madhiyasida mamlakatning 27 million aholisi tarkibida mavjud boʻlgan 14 ta etnik guruh eʼtirof etiladi. Bular: pushtunlar, tojiklar, hazoralar, oʻzbeklar, balujlar, turkmanlar, nuristonliklar, pomirliklar, arablar, gujarlar, brahuilar, qizilbashlar, aymoq va pashaylardir. Ushbu guruhlarining kam qismi Afgʻoniston hududining tub aholisi hisoblanadi; yirik etnik guruhlarining aksariyati qoʻshni davlatlarda ancha katta son bilan yashaydi. Bunday demografik tarkibga ega mamlakatda barqaror davlatni boshqarish tarixan doimo asosiy muammolardan biri boʻlib kelgan.¹

Afgʻonistonning Kishim, Argu, Daroyim, Shahribuzurg, Yaftal, Rogʻ, Baxorak, Darboz, Pomirda kabi viloyatlarida oʻzbeklar istiqomat qiladilar. Badaxshon viloyatining Argu qoriyasida 50 ming, Daroyimi Badaxshonda 20 ming, Baxorak ulusida 10 ming oʻzbek yashaydi. Taxor viloyatida jami 1 million 20 ming kishi istiqomat qiladi ularning 70% qismini oʻzbeklar tashkil qiladi. Shuningdek, Qunduz viloyatining 35-40% qismini oʻzbeklar tashkil qiladi.²

Bundan koʻrinib turibdiki Afgʻonistonning shimoliy hududlarida koʻpgina oʻzbek millatiga tegishli insonlar yashaydi. Oʻzbeklar Afgʻonistondagi uchinchi yirik xalqdir. Mamlakat shimolidagi 8 ta viloyat aholisining asosiy qismini oʻzbeklar tashkil qiladi. XX asrning 70-yillarida Afgʻoniston aholisi 16 million kishini tashkil etgan boʻlsa, shundan 2 millioni oʻzbeklar edi.

XX asr davomida Afgʻoniston oʻzbeklari asosan shimoliy viloyatlarda (Juzjon, Faryob, Balx, Sar-e Pul) yashab, dastlab cheklangan siyosiy vakillikka ega boʻlgan. Monarxiya va undan keyingi respublika davrida oʻzbeklar davlat boshqaruvida tizimli tarzda ishtirok etmagan boʻlsa-da, harbiy va mintaqaviy boshqaruv strukturalarida muhim ijtimoiy kuch sifatida shakllangan. Sovet-Afgʻon urushi (1979–1989) davrida shimoliy mintaqalarda mahalliy qurolli tuzilmalarning paydo boʻlishi oʻzbeklarning siyosiy-harbiy faolligini kuchaytirdi.

¹Abubakar Siddique "Afghanistan's ethnic divides" 2016

² Ahmadjonov, N. (2024). Shimoliy Afgʻoniston hududidagi oʻzbeklarning kelib chiqish tarixi. "Prospects and Main Trends in Modern Science"

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda Afgʻonistondagi etnosiyosiy jarayonlar davlatning zaif institutsional tuzilmasi va tashqi omillar bilan izohlanadi. Jumladan, Barnett R. Rubin va Thomas Barfield kabi tadqiqotchilar oʻzbeklarni shimoliy Afgʻonistonda muhim mintaqaviy siyosiy aktor sifatida baholab, ularning siyosiy faolligi davlat boshqaruvidagi etnik muvozanat masalalariga bevosita taʼsir koʻrsatganini taʼkidlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Thomas Barfieldning *Afghanistan: Cultural and Political History* kitobi Afgʻoniston tarixini koʻp millatli, koʻp madaniyatli jamiyat kontekstida yoritadi. Kitobning birinchi bobida Barfield Afgʻonistonning geografik, etnik va qavmiy xilma-xilligini yoritadi, u yerda yashagan barcha insonlar “afgʻon” identitiga birlashishiga qaramay, turli guruhlar – Pushtunlar, Tojiklar, Hazoralar. Oʻzbeklar va boshqa turkey guruhlar mavjudligini keltirib oʻtadi, xususan Barfield kitobida aytishicha, Afgʻonistonning shimoliy hududlarida Turkiy oilasi etnik guruhlar shu jumladan Oʻzbeklar va Turkmanlar anʼanaviy ravishda muhim ahamiyatga ega boʻlib ular Afgʻoniston etnik mozaikasining ajralmas qismidir. Bu kitob bugungi kunda Afgʻoniston tarixi boʻyicha yaʼni etnomadaniy va etnosiyosiy tarixi boʻyicha asosiy manbalardan biridir. Barfield Oʻzbeklarning siyosiy roli haqida quydagicha yozadi. “Oʻzbeklar koʻpincha regional siyosiy va harbiy kuch sifatida tavsiflanib, XX asr davomida shimoliy Afgʻoniston hududlarida oʻzbeklar mahalliy hokimiyatda va qishloq siyosatida faol boʻlgan. Ularning tashkilotlari, ayniqsa Junbish-i-Milli Islami (N. Dustum yetakchiligidagi harbiy-siyosiy harakat) orqali, Afgʻonistonning umumiy siyosiy xaritasida sezilarli oʻrin egallagan”.³

Ahmadjonov, N. (2024). Shimoliy Afgʻoniston hududidagi oʻzbeklarning kelib chiqish tarixi maqolasi Afgʻoniston shimolida istiqomat qiluvchi oʻzbeklarning etnogenizi va tarixiy kelib chiqishini ilmiy tahlil qiladi. Muallif maqolada bu etnik guruhning shakllanishini faqatgina zamonaviy hududiy joylashuv bilan chegaralamasdan, ularning tarixiy ildizlari va koʻp bosqichli migratsiya jarayonlarini ham yoritadi. Ahmadjonov tahliliy yondashuvi oʻzbeklarning Afgʻonistondagi tarixiy joylashuvi ikki asosiy bosqichni ajratadi: qadimgi koʻchmanchi turkiy guruhlar davri va millat sifatida mustaqil identitetga ega boʻlish davri, u shuni takidlaydi, Shimoliy Afgʻonistonda yashovchi oʻzbeklar bir vaqtlar migratsion jarayonlarning natijasida shakllangan boʻlib, vaqt oʻtishi bilan oʻzaro aralashgan guruhlar orqali mustahkam ijtimoiy hamjamiyat va madaniy tizimga aylangan.⁴

Afgʻoniston tarixini yoritishda undagi etnik muommolar haqida keng yoritilgan adabiyotlardan yana biri bu – Guistozzi (2009) – *Empires of Mud: Wars and Warlords in Afghanistan* kitobidir. Antonio Guistozzi *Empires of Mud* kitobida

³ Thomas, B. (2010). *Afghanistan: A cultural and political history*. Princeton University Press

⁴ Ahmadjonov, N. (2024). Shimoliy Afgʻoniston hududidagi oʻzbeklarning kelib chiqish tarixi. “Prospects and Main Trends in Modern Science”

Afgʻonistonning zamonaviy siyosiy va harbiy tarixiga chuqur kirib boradi, ayniqsa war-lordizm fenomenini (yaʼni markaziy hukumatning zaifligi fonida harbiy qumondonlar orqali mintaqaviy hokimiyatni egallash) tahlil qiladi. Bu kitob orqali biz Afgʻonistondagi “Junbish-e Milli” partiyasi haqida maʼlumotga ega boʻlishimiz mumkin. Kitobda Dustumning tizimi boshqa warlordlarning hokimiyat shakllaridan farqli jihatlar bilan tahlil qilinadi, xususan uning shimoliy hududlarda mahalliy resurs va qumondonlik tarmoqlarini boshqarish uslubi, siyosiy va iqtisodiy tizimlari batafsil yoritiladi. Kitobda Dustumning roli nafaqat harbiy qudratga, balki shimoliy Afgʻonistonning siyosiy va iqtisodiy hayotida ham muhim ekanligi koʻrsatiladi.⁵

ASOSIY QISM:

1. XX asrda Afgʻoniston oʻzbeklarining siyosiy maqomi va boshqaruvdagi cheklangan ishtiroki.

XX asr davomida Afgʻoniston davlat boshqaruvi asosan pushtun siyosiy elitasining nazorati ostida boʻlib, oʻzbeklar markaziy hokimiyatda cheklangan vakillikka ega edi. Monarxiya (1919–1973) va undan keyingi respublika davrida (1973–1978) oʻzbeklar asosan shimoliy viloyatlarda yashovchi mintaqaviy aholi sifatida qaralib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida tizimli ishtirok etmagan. Ularning davlat apparatidagi roli koʻproq mahalliy maʼmuriy lavozimlar va harbiy xizmat bilan cheklangan. Ahmadjonov Nodir oʻz maqolasida shunday fikrlar keltirib oʻtadi Oʻzbekiston Respublikasida tashqarida faqat Afgʻonistonda oʻzbek tili rasmiy til sifatida tan olinganligini keltirib oʻtadi. Afgʻoniston Respublikasi konstitutsiyasi 16-bobi 1 va 4 moddalariga asoslanib oʻzbek tili Afgʻonistonning shimoliy qismida rasmiy til sifatida tan olinganligini keltiradi.⁶

1979–1989 yillardagi Sovet-Afgʻon urushi davrida oʻzbeklar yashaydigan shimoliy hududlar strategik ahamiyat kasb etdi. Bu davrda mahalliy harbiy qoʻmondonlar va militsiya tuzilmalarida oʻzbeklarning soni ortdi. Biroq, ushbu faollik markaziy davlat boshqaruviga toʻliq integratsiya bilan yakunlanmadi. Aksincha, urush yillari Afgʻonistonda mintaqaviy va etnik asosdagi qurolli guruhlarining kuchayishiga olib keldi, bu esa keyingi siyosiy parokandalik uchun zamin yaratdi. Amerikalik antropolog “Thomas Barfield” ning yozishicha, “Afgʻonistondagi etnik guruhlar hech qachon oʻzlarini siyosiy birlik yoki milliy davlatni talab etadigan umumiy tarix va ustuvor mushtaraklikka ega qatʼiy millatlar sifatida koʻrmagan”. Uning taʼkidlashicha, “Afgʻonistonda etniklik mohiyatan pre-milliy (prenatsional) xarakterga ega boʻlib, etnik guruhlar oʻxshash iqtisodiy va siyosiy manfaatlarga ega boʻlsalar-da, ularni

⁵ Giustozzi, A. (2009). Empires of mud: Wars and warlords in Afghanistan. Hurst & Company

⁶ Ahmadjonov, N. (2024). Shimoliy Afgʻoniston hududidagi oʻzbeklarning kelib chiqish tarixi. “Prospects and Main Trends in Modern Science”

birlashtiruvchi umumiy mafkura yoki separatistik intilishlarga ega emas”. (Barfield T., 2010)

2. 1990-yillarda o‘zbeklarning mintaqaviy siyosiy kuch sifatida shakllanishi.

1990-yillarda Afg‘onistonda markaziy davlat institutlarining yemirilishi fonida o‘zbeklar siyosiy-harbiy kuch sifatida faol namoyon bo‘la boshladi. Bu jarayon eng avvalo Abdul Rashid Dostum yetakchiligidagi Junbish-i Milli harakatining shakllanishi bilan bog‘liq edi. Junbish shimoliy viloyatlarda real harbiy va siyosiy nazoratni amalga oshirib, mahalliy boshqaruv, soliq tizimi va xavfsizlik masalalarida muhim rol o‘ynadi.

Mazkur davrda o‘zbeklar Afg‘oniston siyosiy tizimida mustaqil aktor sifatida namoyon bo‘lib, mamlakatdagi etnik kuchlar muvozanatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Junbish harakati orqali o‘zbeklar muvaqqat hukumatlar, ittifoqlar va mintaqaviy kelishuvlarda ishtirok etdi. Shu bilan birga, 1990-yillardagi siyosiy beqarorlik va ichki raqobatlar o‘zbek siyosiy elitasining markaziy hokimiyat bilan barqaror institutsional aloqalar o‘rnatishiga to‘sqinlik qildi.

1992-yilda Abdul Rashid Dostum tomonidan tashkil etilgan Afg‘onistondagi siyosiy partiya bo‘lib, u Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasining (PDPA) kommunistik hukumatiga sodiq bo‘lgan kuchlarning qoldiqlaridan shakllantirilgan. U “sobiq kommunistlar va islomchilar bilan to‘ldirilgan tashkilot” sifatida tavsiflanadi va nisbatan dunyoviy hamda chap qanotga moyil harakat deb hisoblanadi. Uning asosiy saylovchilar bazasini o‘zbeklar tashkil etadi va partiya eng kuchli mavqega Juzjon, Balx, Faryob, Sar-e Pul va Samangan viloyatlarida ega bo‘lgan. Ikkinchi va Uchinchi Afg‘oniston fuqarolar urushi davrida Junbish asosan O‘zbekiston tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Junbish va uning harbiy qanoti — 53-diviziya dastlab Afg‘oniston shimolidagi Sheberghan neft konlarini himoya qilish uchun “o‘zini-o‘zi mudofaa qilish bo‘linmasi” sifatida tashkil etilgan. Avval kichik bo‘linma va rota darajasida bo‘lgan bu tuzilma 1989-yilga kelib taxminan 40 ming kishilik diviziyaga aylandi va Afg‘oniston hukumatiga qo‘shilib, 53-diviziya deb ataldi.⁷

1988-yilda Junbish kuchlari Afg‘onistondan chiqib ketayotgan Sovet Ittifoqi qo‘shinlari o‘rnini egallab, Qandahor ustidan nazoratni qo‘lga oldi, shuningdek Xost, Log‘ar, G‘azni, Paktikadagi Gardez hududlariga va Kobul atrofida joylashtirildi. Bu bo‘linmalarga keyinchalik ko‘plab mujohid qo‘mondonlar ham qo‘shildi. Jumladan, Rasul Pahlavon, doktor Hissomuddin Hissom, G‘affor Pahlavon kabi Sar-e Pul va Taxordan chiqqan o‘zbek qo‘mondonlar, shuningdek Balx viloyatidan bo‘lgan afg‘on arab-o‘zbek generali Majid Rozi va Juzjondan bo‘lgan general Jura Beg Junbish safiga

⁷ National Islamic Movement of Afghanistan is a political party founded by Abdul Rashid Dostum in 1992, mainly representing ethnic Uzbek interests in northern Afghanistan.

qo'shildi. A'zolarining aksariyati yoki sobiq hukumatdan ajralib chiqqanlar, yoki PDPAning Parcham qanotiga mansub shaxslar edi. 1992-yilda, Rossiyaning yangi prezidenti Boris Yelsin doktor Muhammad Najibulloh hukumatiga ko'rsatilayotgan yordamni to'xtatgach, Do'stum Ahmad Shoh Masud bilan muzokaralarga kirisha boshladi. 19-mart kuni Najibulloh tojik generali Mo'minni Hairaton garnizoniga qo'mondonlik qilgan xalqi (Khalqist) pushtun generali Rasul bilan almashtirishga uringanida, Mo'min Do'stunning ko'magida qo'zg'olon ko'tardi. Shu tariqa Do'stum Mozori Sharif ustidan nazoratni qo'lga oldi. Bu jarayon keng ko'lamli talon-tarojlar bilan kechdi. Aynan shu davrda Junbish Bag'lon, Samangan, Balx, Juzjon, Sar-e Pul va Faryob viloyatlarida ustun siyosiy kuchga aylandi. Najibulloh hukumati 1992-yil aprel oyida qulagach, Junbish kuchlari Kobulga aeroport yaqinidagi yo'l orqali kirib keldi va bir oy ichida Tapa Maranjan, Bala Hisor, Kobul aeroporti, Eski Mikrorayon va Chaman Hozori hududlarini egalladi. Dastlabki ikki hududga artilleriya joylashtirildi. Aeroport ustidan nazorat o'rnatilishi Najibullohning mamlakatdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymadi va u Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosidan panohtopishga majbur bo'ldi.⁸

Shuningdek, sobiq hukumatdan o'tgan harbiy mutaxassislar va aeroport ustidan nazorat tufayli Do'stum Kobul jangining muhim bosqichlarida reaktiv harbiy samolyotlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi.

3. XXI asr boshidan keyin o'zbeklarning davlat boshqaruviga institutsional integratsiyasi.

2001-yilda Tolibon rejimi qulagach, Afg'onistonda yangi siyosiy tizim shakllandi va o'zbeklarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu davrda o'zbek siyosiy vakillari parlament, viloyat hokimiyatlari va xavfsizlik tuzilmalarida rasmiy lavozimlarga ega bo'la boshladi. Jumladan, Abdul Rashid Do'stum Afg'oniston vitse-prezidenti lavozimini egallab, o'zbeklarning markaziy hokimiyatdagi ramziy va siyosiy mavqei mustahkamladi.

Shu davrda o'zbeklarning siyosiy faolligi qurolli kuchlardan institutsional boshqaruv shakllariga o'ta boshladi. Parlamentdagi o'zbek deputatlari, viloyat hokimlari va siyosiy partiyalar faoliyati o'zbeklarning Afg'oniston siyosiy tizimiga qisman integratsiyasini ta'minladi. Biroq bu jarayon murakkab va ziddiyatli bo'lib, markaziy hokimiyat bilan mintaqaviy manfaatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar saqlanib qoldi. Shunga qaramay, XXI asr boshlarida o'zbeklar Afg'oniston boshqaruvida muhim etnosiyosiy subyekt sifatida o'z o'rnini saqlab qoldi.

2001-yil 11-sentabrdagi Nyu-York va Vashingtondagi hujumlardan so'ng Afg'oniston butun dunyo e'tiborini qozondi. Amerika yetakchiligidagi tezkor harbiy

⁸ National Islamic Movement of Afghanistan is a political party founded by Abdul Rashid Dostum in 1992, mainly representing ethnic Uzbek interests in northern Afghanistan.

amaliyot natijasida Tolibon mag'lubiyatga uchradi. Shu bilan birga, siyosiy jarayonlar ancha sekin va kamchiliklar bilan amalga oshirildi; asosiy maqsad "keng qamrovli va ko'p millatli" hukumatni shakllantirish edi. Kandahardan bo'lgan Durrani Pashtun yetakchisi Hamid Karzai birinchi o'tkazish ma'muriyatining rahbari sifatida tanlandi. U boshqargan 30 kishilik kabinet tarkibida 11 Pashtun, 8 Tojik, 5 Hazara, 3 O'zbek va 3 boshqa etnik ozchilik vakillari mavjud edi.⁹

2021-yilda Tolibon harakati Afg'onistonda hokimiyatni to'liq egallaganidan so'ng mamlakat boshqaruv tizimi tubdan o'zgardi va ilgari mavjud bo'lgan siyosiy institutlar, jumladan parlament, siyosiy partiyalar hamda saylov mexanizmlari bekor qilindi. Natijada, Afg'onistonda etnik guruhlarining siyosiy vakilligi asosiga qurilgan nisbatan inklyuziv boshqaruv modeli tugatildi. Ushbu jarayon o'zbeklarning davlat boshqaruvidagi roliga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Bugungi kunda Afg'oniston markaziy boshqaruvida o'zbeklar deyarli vakillikka ega emas. Vazirliklar, xavfsizlik tuzilmalari va oliy siyosiy qarorlar qabul qilinadigan darajalarda o'zbek millatiga mansub siyosiy arboblarning kuzatilmaydi. Barcha muhim lavozimlar Tolibonning ichki ierarxiyasi orqali tayinlanadi va bu tizim etnik muvozanat yoki siyosiy inklyuziyani nazarda tutmaydi. Shu sababli, 2001–2021 yillarda mavjud bo'lgan vitse-prezidentlik, parlamentdagi o'zbek deputatlari va siyosiy partiyalar orqali amalga oshirilgan vakillik to'liq barham topgan.

Mahalliy boshqaruv darajasida, ayniqsa shimoliy viloyatlarda, ayrim o'zbek vakillari tuman yoki viloyat miqyosidagi ijroiylavozimlarga tayinlanmoqda. Biroq bu tayinlovlar siyosiy vakillikni anglatmaydi, balki markaziy hokimiyat tomonidan qat'iy nazorat qilinadigan ma'muriy funksiyalar bilan cheklanadi. Mahalliy o'zbek amaldorlari siyosiy tashabbus ko'rsatish, hududiy manfaatlarni mustaqil himoya qilish yoki markaziy qarorlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega emas.

Shuningdek, o'zbeklarning siyosiy-harbiy kuch sifatidagi roli ham deyarli yo'qolgan. Ilgari Afg'oniston siyosiy maydonida muhim o'rin tutgan Junbish-i Milli harakati faoliyatini to'xtatgan, uning yetakchilari esa mamlakatdan tashqarida faoliyat yuritmoqda. Bu holat o'zbeklarning siyosiy ta'sirini ta'minlab kelgan asosiy institutlarning parchalanib ketganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bugungi Afg'oniston boshqaruv tizimida o'zbeklar siyosiy aktor sifatida emas, balki boshqariluvchi etnik jamoa sifatida mavjud. Ularning davlat boshqaruvidagi roli ramziy va cheklangan bo'lib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga real ta'sir ko'rsatmaydi. Bu holat XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbeklar erishgan nisbiy siyosiy faollik va institutsional vakillik darajasidan keskin orqaga chekinishni anglatadi hamda Afg'onistonda etnosiyosiy muvozanatning buzilganini yaqqol namoyon etadi.

⁹ Abubakar Siddique "Afghanistan's Ethnic Divides" 2016

XULOSA

XX–XXI asrlarda Afgʻoniston boshqaruvida oʻzbeklarning oʻrni mamlakatdagi siyosiy tizimning beqarorligi, markaziy hokimiyatning zaifligi va etnik omilning oʻzgaruvchan xarakteri bilan chambarchas bogʻliq holda shakllandi. XX asr davomida oʻzbeklar Afgʻoniston siyosiy hayotida asosan cheklangan va ikkilamchi rol oʻynab, markaziy davlat boshqaruvida tizimli vakillikka ega boʻla olmadi. Ularning ishtiroki koʻproq mahalliy maʼmuriy tuzilmalar va harbiy xizmat bilan cheklanib, siyosiy qarorlar qabul qilish darajasiga yetib bormadi.

1990-yillarda Afgʻonistonda markaziy davlat institutlarining parchalanishi sharoitida oʻzbeklar mintaqaviy siyosiy kuch sifatida maydonga chiqdi. Bu davrda oʻzbek siyosiy elitasining harbiy va hududiy nazoratga asoslangan faolligi kuchaydi va ular mamlakat siyosiy jarayonlarida mustaqil aktor sifatida namoyon boʻldi. Biroq mazkur faollik barqaror institutlarga tayangan boshqaruv shakliga aylanmadi va etnik-siyosiy raqobat, ichki ziddiyatlar hamda umumdavlat miqyosida siyosiy integratsiyaning sustligi bilan cheklanib qoldi.

2001-yildan keyingi davrda oʻzbeklarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki nisbatan institutsional shaklga ega boʻlib, ular parlament, viloyat hokimiyatlari va ijroiya tuzilmalarida vakillikka erishdi. Bu bosqichda oʻzbeklar Afgʻoniston siyosiy tizimiga qisman integratsiyalashdi va etnik muvozanatni taʼminlash jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Biroq 2021-yildan soʻng siyosiy tizimning keskin oʻzgarishi ushbu yutuqlarning aksariyatini yoʻqqa chiqardi va oʻzbeklarning siyosiy vakilligi yana cheklangan holatga qaytdi. Umuman olganda, Afgʻoniston tarixida oʻzbeklarning boshqaruvdagi oʻrni barqaror va uzluksiz boʻlmagan boʻlib, u koʻproq siyosiy vaziyat, markaziy hokimiyatning kuchi va institutlarning mavjudligiga bogʻliq holda oʻzgarib kelgan. Bugungi kunda oʻzbeklar Afgʻoniston boshqaruvida siyosiy qarorlar qabul qiluvchi subyekt emas, balki cheklangan maʼmuriy rolga ega etnik jamoa sifatida namoyon boʻlmoqda. Bu holat mamlakatda inklyuziv boshqaruvning yoʻqligi va etnosiyosiy muvozanat masalasining hanuz dolzarb ekanini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Thomas, B. (2010). *Afghanistan: A cultural and political history*. Princeton University Press.
2. Ahmadjonov, N. (2024). Shimoliy Afgʻoniston hududidagi oʻzbeklarning kelib chiqish tarixi. "Prospects and Main Trends in Modern Science" 2(13), 126–128.
3. Giustozzi, A. (2009). *Empires of mud: Wars and warlords in Afghanistan*. Hurst & Company
4. Rubin, B. R. (2002). *The fragmentation of Afghanistan: State formation and collapse in the international system*. Yale University Press.
5. Roy, O. (1990). *Islam and resistance in Afghanistan*. Cambridge University Press.

6. Saikal, A. (2012). “Modern Afghanistan: A history of struggle and survival”. I.B. Tauris.
7. Madraimov A. and et al. Handwritten Text Recognition in Ancient Manuscripts Using Convolutional Neural Networks (CNN) // Proceedings of the 2025 International Conference on Computational Innovations and Engineering Sustainability (ICCiES 2025). – 2025.

